



## TABIY SUV HAVZALARINING HUQUQIY REJIMI VA ULARNING BALIQCHILIK SOHASIDAGI O'RNI

*Namangan davlat universiteti*

*Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi*

***Muhammadjonova Gulasal Muzaffar qizi***

[\*muhammadjonovago07@gmail.com\*](mailto:muhammadjonovago07@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ekologiya huquqining asosini tashkil etuvchi elementlardan hisoblangan ikki tarmoq: tabiiy suv havzalari va baliqchilik borasidagi fikrlar huquqiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu ikki element birlashuvida, ya'ni tabiiy suv havzalaridan baliqchilik ehtiyoji uchun foydalanish misolida ularning har birini huquqiy rejimi, mohiyati va tabiiy suv havzalarining baliqchilik sohasidagi o'rni yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar.** Tabiiy suv havzalari, baliqchilik tarmog'i, huquqiy rejim, ekologik huquq, ijara huquqi, "e-auksion", ruxsatnoma.

Tabiiy suv havzalarining huquqiy rejimi deganda, qonun hujjatlari bilan belgilangan, suv obyektlaridan foydalanish, ularni muhofaza qilish va boshqarish tartib-qoidalari majmuasi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida barcha suv havzalari (daryolar, ko'llar. Suv omborlari) davlat mulki hisoblanadi va ulardan oqilona foydalanish konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan<sup>1</sup>.

**"Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga ko'ra,** suv obyektlari umumdavlat mulki – umummilliy boylikdir. Bu degani, suv havzalari oldi-sotdi qilinmaydi, faqatgina ma'lum shartlar asosida foydalanishga beriladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023. 68-modda.



Baliqchilik xo'jaliklari uchun tabiiy suv havzalari asosan **ijara huquqi** asosida taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-avgustdagi 350-sonli qarori tabiiy suv havzalarini ijaraga berishning huquqiy asosi hisoblanadi<sup>2</sup>. Hozirgi kunda ushbu jarayon to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, suv havzalari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ochiq va shaffof tarzda ijaraga berilmoqda.

Tabiiy suv havzalarining huquqiy rejimida suv muhofaza qilish zonalari alohida o'rin tutadi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrda 981-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko'ra, daryo va ko'llar atrofida qat'iy xo'jalik faoliyati cheklangan zonalar belgilanadi<sup>3</sup>. Bu zonada suvning ekologik holatiga zarar yetkazuvchi har qanday harakat taqiqlanadi.

Tabiiy suv havzalaridan foydalanishda huquqiy rejim nafaqat iqtisodiy, balki ekologik xavfsizlikni ham nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasining **Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (MJTK)ning 74 va 82-moddalari** suv obyektlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik va suv havzalarida baliq tutish tartibini buzganlik uchun qat'iy choralar belgilaydi<sup>4</sup>.

Huquqiy rejimning muhim qismi bu – **suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomasi** hisoblanadi. Bu ruxsatnoma foydalanuvchiga suvning limitini, suvdan foydalanish muddatini va ekologik talablarni belgilab beradi. Tabiiy suv havzalarining huquqiy rejimini takomillashtirishda xalqaro tajriba, xususan, MDH davlatlari qonunchiligi o'rganilganda shuni ko'rish mumkinki, suv havzalarini uzoq

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-avgustdagi "Baliqchilik tarmog'ida monopoliyadan chiqarish va xususiyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 350-sonli qarori.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi hududidagi suvni muhofaza qilish zonalari va sanitariya-muhofaza zonalari rejimini belgilash to'g'risida"gi 981-son qarori.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – T.: "Adolat", 2024.



muddatli (10yildan 30yilgacha) ijaraga berish amaliyoti samarali natija bermoqda. O'zbekistonda ham ushbu tizim joriy etilishi tadbirkorlarda "suvning egasi" degan mas'uliyat hissini shakllantiradi<sup>5</sup>.

Tabiiy suv havzalari mamlakatimiz baqchilik tarmog'ining xomashyo bazasi va biologik asosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi PQ-83-son qarori bilan tabiiy suv havzalaridan foydalanish samaradorligini oshirish baliqchilikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi etib belgilandi<sup>6</sup>.

Baliqchilikdagi o'rni quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

1. **Sanoat ahamiyati:** Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, Sariosiyo, Chorvoq va boshqa yirik havzalar mamlakatda ovlanadigan baliqning salmoqli qismini bradi. Bu havzalarda nafaqat balliq ovlash, balki baliq chavoqlarini yetishtirish ham yo'lga qo'yilgan.

2. **Ekologik vazifa:** Baliqchilik xo'jaligini yurituvchi ijarachilar zimmasiga suv havzasini muntazam ravishda baliqlantirish (meliorativ baliqlar – oq amur va do'ngpeshona tashlash) majburiyati yuklanadi. Bu esa suv havzalarining o't bosib ketishi va botqoqlanishini oldini oladi.

3. **Investitsiya va bandlik:** Tabiiy havzalarni ijaraga olgan tadbirkorlar u yerda inkubatsiya sexlari, sovitkichli omborlar va qayta ishlash korxonalarini qurish orqali yangi ish o'rinlari yaratmoqda. PQ – 67-son qarorga muvofiq, bunday tadbirkorlarga bir qator soliq imtiyozlari berilgan<sup>7</sup>.

<sup>5</sup> Vahobov A.V. va boshqalar. "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda baliqchilik tarmog'ining o'rni". Ilmiy maqola, 2022.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 83-son qarori.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrda "Baliqchilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 67-son qarori.



Tabiiy suv havzalarining baliqchilikdagi ahamiyati faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy xarakterga ham ega. Ular aholini parhez mahsulot bilan ta'minlashdan tashqari, **havaskorlik va sport baliq ovi** orqali rekreatsiya va ekoturizmni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda tabiiy suv havzalarida baliqchilikni yuritish faqatgina an'anaviy "to'rt tashlash" usuli bilan cheklanmaydi. **Intensiv baliqchilik** usullarini (qafas sulu – sadok) tabiiy havzalarga tatbiq etish orqali hosildorlikni 10 barobargacha oshirish imkoniyati mavjud. Prezidentning **PQ – 83-son qaroriga** muvofiq, tabiiy suv havzalarida o'rnatilgan qafas (sadok) moslamalari uchun mol-mulk solig'idan ozod etish bo'yicha imtiyozlar berilgani soha rivojiga turtki bo'ldi.

Tabiiy suv havzalarini ijaraga berish faqatgina suv maydonidan foydalanish huquqini taqdim etish emas, balki ijarachining zimmasiga muayyan investitsiyaviy va ekologik majburiyatlarni yuklashni ham nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining amaldagi nizomlariga ko'ra, ijara shartnomasida tadbirkor tomonidan havzani baliqlantirish (zaryableniye) rejasi aniq belgilab qo'yiladi.

Huquqiy nuqtayi nazardan, bu jarayon "resursdan foydalanganlik uchun haq to'lash" tamoyilidan "resursni qayta tiklash" tamoyiliga o'tishni anglatadi. Masalan, ijarachi har yili havzaning har gektariga kamida 100-150 dona baliq chavoqlarini tashlashi shart. Ushbu majburiyatning bajarilishi "O'zbaliqsanoat" uyushmasi va Ekologiya inspeksiyasi tomonidan nazorat qilinadi. Majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, ijara shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish mexanizmi huquqiy rejimning qat'iyligini ta'minlaydi.

Shuningdek, tabiiy havzalarda baliqchilikni rivojlantirish uchun ajratiladigan kredit liniyalari va davlat subsidiyalari ham bevosita huquqiy rejim bilan bog'liq. PQ-83-sonli qarorga asosan, qafas (sadok) usulida baliq yetishtiruvchi tadbirkorlarga beriladigan soliq imtiyozlari tabiiy suv havzalarining iqtisodiy



jozibadorligini oshirmoqda. Bu esa o‘z navbatida havzalarning nafaqat ov maydoni, balki intensiv ishlab chiqarish platformasiga aylanishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston tabiiy suv havzalarini boshqarishda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan ishlab chiqilgan "Mas‘uliyatli baliqchilik yuritish kodeksi" tamoyillarini o‘z qonunchiligiga implementatsiya qilmoqda. Xususan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, suv havzalarini uzoq muddatli (20 yildan ortiq) ijaraga berish tadbirkorda "vaqtinchalik foydalanuvchi" emas, balki "mas‘uliyatli mulkdor" psixologiyasini shakllantiradi.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash joizki, tabii suv havzalaridan baliqchilik ehtiyojlari uchun oqilona foydalanishni ta’minlash faqat huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu jarayon iqtisodiy, ekologik va institutsional mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashni talab etadi. Faqatgina kompleks va tizimli yondashuv asosida ushbu sohani barqaror rivojlantirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish mumkin. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishdagi islohotlar oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, aholi bandligini oshirish va ,illiy iqtisodiyotning barqaror o‘shishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2023-y.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.** "Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida". 2022-yil 13-yanvar PQ – 83-son.



3. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori.** "Tabiiy suv havzalari uchastkalarini baliq ovlash xo‘jaliklariga ijaraga berish tartibi to‘g‘risida". 2003-yil 13-avgustdagi 350-sonli qaror va uning yangi tahrirlari.
4. **FAO (Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti) hisobotlari:** "The State of World Fisheries and Aquaculture" (muntazam yangilanib turadi).
5. **WFC (WorldFish Center) materiallari:** Tabiiy suv havzalarida barqaror baliqchilikni boshqarish bo‘yicha qo‘llanmalar.
6. **www.lex.uz** – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.
7. **www.sud.uz** – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy sayti.